

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NIZOLARNI MUQOBIL HAL
ETISH USULI SIFATIDA MEDIATSIYANING O'RNI**

Mahmudov Otabek Bunyod o'g'li
Ma'ripjonova Lobar Saidakbarovna
Ma'murov Temur Abduhalim o'g'li
Malikov Iskandor Zulqaynar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti Yurisprudensiya: biznes huquqi
4-bosqich talabalari

***Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida nizolarni muqobil hal etish usuli sifatida mediatsiya institutining shakllanishi, huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Mediatsiyaning tushunchasi, asosiy tamoyillari, qo'llanish doirasi hamda sud tizimidagi o'rni milliy qonunchilik normalari asosida yoritib berilgan. Shuningdek, mediatsiyaning fuqarolik, oilaviy, mehnat va tadbirkorlik nizolarini hal etishdagi afzalliklari, sud yuklamasini kamaytirishdagi roli va rivojlanish istiqbollari ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** mediatsiya, muqobil nizolarni hal etish, mediator, suddan tashqari kelishuv, huquqiy islohotlar, O'zbekiston qonunchiligi.*

KIRISH

Huquqiy davlat barpo etish jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, sud tizimining ochiqligi va tezkorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq zamonaviy jamiyatda nizolar sonining ortib borishi sudlarga katta yuklama tushishiga olib kelmoqda. Shu sababli, nizolarni hal etishda muqobil mexanizmlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Nizolarni muqobil hal etish usullari orasida mediatsiya alohida o'rin tutadi. Mediatsiya suddan tashqari, ixtiyoriy va kelishuvga asoslangan jarayon bo'lib, u tomonlar

o'rtasida murosaga erishishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida mediatsiya instituti mustaqillik yillarida huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida shakllandi va milliy qonunchilikda mustahkamlandi.

Mediatsiya — bu nizolashayotgan tomonlarning o'zaro roziligi asosida betaraf uchinchi shaxs — mediator ishtirokida nizoni hal etish jarayonidir. Mediator nizoni hal qiluvchi emas, balki tomonlarni kelishuvga olib keluvchi vositachi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, mediatsiya nizolarni sudgacha yoki sud jarayonida muqobil tarzda hal etishning huquqiy mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu institutning joriy etilishi xalqaro huquqiy tajribaga mos bo'lib, BMT, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan nizolarni hal etish mexanizmlariga uyg'un keladi. Mediatsiya to'g'risidagi qonunning 8-moddasiga ko'ra Mediatsiya tartib-taomili mediativ kelishuv shartlariga bir tomonlama ta'sir ko'rsatishni istisno etgan holda amalga oshirilishi kerak. Mediatsiya tartib-taomili nizo xususida taraflarning hamkorligi asosida o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Mediatsiya taraflari mediatori, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibini, mediatsiya tartib-taomilidagi o'z nuqtai nazarini, bu nuqtai nazarni himoya qilish usullari va vositalarini tanlashda, axborot olishda, mediativ kelishuv shartlarining o'zaro maqbulligini baholashda teng huquqlardan foydalanadi hamda ularning zimmasida teng majburiyatlar bo'ladi.

1. Mediatsiyaning O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy asoslari:

O'zbekiston Respublikasida mediatsiyaning asosiy huquqiy manbai — 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonun hisoblanadi.

Ushbu Qonun 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirib, mediatsiya jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Qonunga muvofiq, mediatsiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ixtiyoriylik;
- tomonlarning tengligi;
- mediatorning mustaqilligi va betarafligi;
- maxfiylik;
- hamkorlik va o‘zaro hurmat.

Bundan tashqari, mediatsiya normalari Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi va Oila kodeksi normalari bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llaniladi. Masalan, sud jarayonida tomonlarga yarashish va mediatsiyadan foydalanish huquqi qonun bilan kafolatlangan.

2. Mediatsiyaning qo‘llanish sohalari va amaliy ahamiyati:

“Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, mediatsiya quyidagi nizolarni hal etishda qo‘llaniladi:

- fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar;
- tadbirkorlik va xo‘jalik nizolari;
- mehnat nizolari;
- oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar.

Ayniqsa, oilaviy va mehnat nizolarida mediatsiyaning ahamiyati katta, chunki bu sohalarda tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish muhim hisoblanadi. Mediatsiya orqali erishilgan kelishuvlar ko‘pincha sud qarorlariga nisbatan barqarorroq bo‘ladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya nizolarni

qisqa muddatda hal etish, taraflarning ruhiy va moliyaviy yukini kamaytirish imkonini beradi.

3. Mediatsiyaning sud tizimidagi o'rni va afzalliklari:

Mediatsiya instituti sud tizimining muhim yordamchi mexanizmi hisoblanadi. Sudlar mediatsiya orqali hal etilishi mumkin bo'lgan nizolarni ko'rib chiqishda tomonlarga muqobil yo'l sifatida mediatsiyani tavsiya etishi mumkin.

Mediatsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- sud yuklamasining kamayishi;
- davlat boji va protsessual xarajatlarning qisqarishi;
- nizolarni tezkor hal etish;
- tomonlar o'rtasida ijtimoiy hamda ishbilarmonlik munosabatlarning saqlanib qolishi;
- huquqiy madaniyat va murosaga kelish madaniyatining rivojlanishi.

Shuningdek, mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuvlar qonuniy kuchga ega bo'lib, belgilangan tartibda ijro etilishi mumkin.

4. Mediatsiya institutini rivojlantirish istiqbollari:

O'zbekistonda mediatsiya institutini yanada rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar zarur. Jumladan:

- mediatorlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
- mediatsiya bo'yicha aholining huquqiy ongini oshirish;
- sudlar va notarial organlar faoliyatida mediatsiyani keng joriy etish;
- mediatsiya institutini raqamlashtirish.

Mazkur yo'nalishlar mediatsiyaning samaradorligini oshirishga va huquqiy islohotlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mediatsiya to'g'risidagi qonunning 29-moddasoga ko'ra Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo'yicha taraflar kelib chiqqan nizo yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, taraflar o'rtasida yozma shaklda mediativ kelishuv tuziladi. Mediativ kelishuvda quyidagilar talablar ko'rsatilishi kerak:

- mediativ kelishuv taraflarining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar mediativ kelishuv vakil tomonidan tuzilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- mediativ kelishuv taraflarining kelishuvni bajarish bilan bog'liq huquq va majburiyatlari;
- mediativ kelishuv taraflari tomonidan kelishilgan majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari.

Mediativ kelishuv kelishuvning taraflari tomonidan imzolangan va mediator tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi mediativ kelishuvni tuzishga yo'l qo'yilmaydi:

- 1) agar uning shartlari qonunchilikka zid bo'lsa;
- 2) agar uning shartlari mediatsiyada ishtirok etmayotgan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamoat manfaatlariga daxl qilsa yoki daxl qilishi mumkin bo'lsa.

Avvalo, mediatsiya fuqarolik-huquqiy munosabatlarda keng qo'llaniladi. Xususan, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilmasligi, mulkiy da'volar, qarzdorlik bilan bog'liq nizolar mediatsiya orqali sudgacha bosqichda hal etilishi mumkin. Bu esa taraflarga o'z manfaatlarini yanada moslashuvchan tarzda himoya qilish imkonini beradi. Mehnat huquqi sohasida esa mediatsiya ish beruvchi va xodim o'rtasidagi individual mehnat nizolarini hal etishda qo'llaniladi. Jumladan, ish haqi to'lanmasligi, noqonuniy ishdan bo'shatish yoki mehnat sharoitlariga oid kelishmovchiliklar mediatsiya tartibida ko'rib chiqilishi mumkin. mediatsiya jarayonini amalga oshiruvchi subyektlar doirasi ham kengaytirildi. Endilikda notariuslar va advokatlarga ham mediatsiya o'tkazish huquqi berildi. Mazkur yangilik huquqiy xizmatlar bozorida raqobatni oshirish bilan birga, fuqarolarga yanada qulay va tezkor xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi;

Mediatsiya institutini rivojlantirish masalasi nafaqat qonunchilik darajasida, balki davlat siyosati darajasida ham ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari hamda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026) doirasida mediatsiya institutini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Raqamli texnologiyalarni mediatsiya jarayoniga joriy etish ham istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Onlayn mediatsiya (e-mediatsiya) mexanizmlarini rivojlantirish, masofadan turib muzokara olib borish imkoniyatlarini yaratish hududiy cheklovlarni bartaraf etadi va mediatsiyani yanada qulay qiladi. Bu, ayniqsa, tadbirkorlik va fuqarolik-huquqiy nizolarida mediatsiyaning qo'llanish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. muhim jihat mediatorlar malakasi va professional etikasini rivojlantirishdir. Mediator faqat vositachi sifatida emas, balki

nizoning psixologik, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini chuqur anglay oladigan yuqori malakali


3) mutaxassis bo'lishi kerak. Shu bois mediatorlar uchun doimiy malaka oshirish kurslari, sertifikatlash va qayta tayyorlash tizimi joriy etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mediatsiya O'zbekiston Respublikasida nizolarni muqobil hal etishning samarali, insonparvar va zamonaviy huquqiy mexanizmi hisoblanadi. "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun va unga uyg'un boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mediatsiyaning huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi. Hozirgi kundagi chet el davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning murakkabligi nizolar sonining ortishiga sabab bo'lmoqda. Avvaldan qo'llanilgan sud tizimi orqali nizolarni hal etishda uzoq vaqt talab qiladi. Bundan tashqari, katta xarajatlar bilan birga taraflar o'rtasidagi munosabatlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda nizolarni xal etishda mediatsiya institutiga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Mediatsiya institutining rivojlanishi sud tizimini yangillashtirish, fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilish va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.



5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi.
6. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
7. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
8. Huquqiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar to'plami.